

XITOIY TILIDA LOKATIVLARNING OT TURKUMIGA OID SO‘ZLAR ORQALI
IFODALANISH XUSUSIYATLARI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7351943>

AKRAMOV Zafar

Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.

*This article is devoted to the peculiarities of the
formation of locatives with the help of nouns in
modern Chinese*

Xitoy tilida ot so‘z turkumiga oid so‘zlar bilan ifodalangan lokativlar yo‘nalishni, o‘rin-joyini, vaqtni ifodalaydi. Bunda ushbu so‘zlarning grammatik funkciyalari ot so‘z turkumiga oid bo‘lgan boshqa so‘zlardan farq qiladi.

Yo‘nalishni ifodalovchi lokativlar xitoy tilida 方位词 deb ataladi, ushbu so‘zlar ma‘lum bir ob‘yektни yoki hodisaning ro‘y bergan joyini, yo‘nalishini, joylashuvini bildiradi. Xitoy tilida yo‘nalishni bildiruvchi so‘zlar tuzilishi jihatidan ikki xil guruhga ajratiladi: sodda va qo‘shma tuzilishga ega bo‘lgan yo‘nalishni ifodalovchi so‘zlar.

Sodda tuzilishga ega bo‘lgan lokativlar bir bo‘g‘inli bo‘lib, bularga, masalan, 东 “sharq”, 南 “janub”, 西 “g‘arb”, 北 “shimol”, 里 “ichkari”, 外 “tashqari” kabi so‘zlar kiritiladi. Ushbu so‘zlar ko‘plab frazeologik birliklarda uchraydi. Xususan, 前怕狼后怕虎 “Oldinga yursa bo‘ridan, ortga yursa yo‘lbarsdan qo‘rqmoq”, “Jur‘atsizlik qilmoq”, 上山弯弯腰, 回家有柴烧 “Tog‘da beling og‘risa, uyda yoqqani o‘tining bo‘lar”¹.

Albatta, mazkur so‘zlar adabiy nutqda ham keng qo‘llaniladi. Masalan:

非本单位工作人员请勿入内².

“Mazkur ishxonaning xodimlari bo‘lmaganlarga ichkariga kirish taqiqlanadi”.

万里长城西起甘肃, 东至山海关³.

“Buyuk xitoy devori g‘arbda joylashgan Gansu provinciya-sidan boshlanib, sharqiy qismi esa tog‘lar va dengiz bilan tutashgan”.

Ushbu guruhga oid so‘zlar 朝 “-ga”, 向 “-ga”, 往 “-ga”, 在 “-da; -da joylashgan”, 从 “-dan; -dan boshlab”, 对 “-ga” va boshqa shu kabi ko‘makchilar bilan birga qo‘llanadi. Masalan: 汽车在大雨中不停地往前跑, 我们很快就到达了目的地⁴.

“Mashina qattiq yomg‘irda oldinga qarab tinimsiz yurar edi va biz tez orada ko‘zlagan joyimizga yetib bordik”.

新盖的这几座单元楼都是北朝南的。

“Bu bir nechta yangi qurilgan uylarning hammasi shimol va janubga qaragan”.

Mazkur so‘zlar gapda ega va hol vazifasini bajaradi. Bunda bu so‘zlar doimo antonim so‘zlar bilan birga qo‘llanadi. Masalan:

玉兰姐上有公婆, 下有儿子, 还是个街道干部, 整天没有空闲的时候.⁵”

¹故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 50页。

²张伯江。汉语功能语法研究。商务印书馆, 1982年。- 32页。

³朱德藩。语法讲义。商务印书馆, 1982年。- 22页。

⁴故播刘。实用现代汉语语法。- 北京, 2012年。- 51页。

⁵朱德藩。语法讲义。商务印书馆, 1982年。- 27页。

“Yulan opaning bir tomonda qaynonasi, boshqa tomonda esa o‘g‘li bor, uning ustiga doimo ishda, kun davomida dam olishga vaqti yo‘q”.

我搞的这项改革，上有领导的指点，下有群众的支持，成功是有把握的⁶。

“Biz olib borayotgan ushbu islohotlarimiz tepadan belgilangan, jamoat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi va biz, albatta, bularni amalga oshirishda omadga erishamiz”.

Bu guruhdagi so‘zlar takroriy shakda ham qo‘llanadi, masalan:

敌人闯进她的家里，上上下下，里里外外翻了个够，可是他们连一粒粮食也没有找到⁷。

“Dushmanlar uning uyiga bostirib kirib bordi, tashqarini, ichkarini, hamma joyni qidirib, hattoki bir dona gurichni ham topa olmadilar”.

Yo‘nalishni bildiruvchi so‘zlar ot, o‘tli birikmadan oldin yoki keyin ham qo‘llanadi, masalan: 上个月 “o‘tgan oy”, 上个世纪 “o‘tgan asr”, , 三个月内 “uch oy ichida”, 本世纪中 “mazkur asrda”, 地上 “yer ustida”, 地下 “yer tagida”, 地里 “yer ichida”, 楼上 “binoning ustida”, 楼下 “binoning tagida”, 楼里 “binoning ichida”, 报上 “gazetada”.

Ushbu so‘zlarda qo‘llangan 上 “ustida” va 里 “ichkarida” yengil ohangga ega bo‘ladi.

Bir bo‘g‘inli lokativlardan oldin 以, 之 yoki ulardan keyin 边, 面, 头 so‘zlarini qo‘llagan holda qo‘shma lokativlarni hosil qilish mumkin. Bular o‘z navbatida yo‘nalishni, vaqtni, o‘rin-joyini ifodalashi mumkin. 边, 面, 头 suffiksali bu holda yengil ohangga ega bo‘ladi. Albatta, bu guruhga oid bo‘lgan barcha so‘zlar ham ushbu prefiks va suffiks bilan birga qo‘llanila olmaydi⁸.

Lokativ ma‘nosiga ega bo‘lgan qo‘shma otlar 边, 面, 头 suffiksalaridan oldin qo‘llaniladi, bu holda o‘rtada 的 qo‘llanilmaydi va hosil bo‘lgan so‘z yengil ohangga ega bo‘ladi. Ya‘ni bularning ma‘nosi xuddi [ot + bir bo‘g‘inli yo‘nalishni ifodalovchi so‘zlar] konstruksiyasiga ega bo‘lgan so‘z birikmalari bilan bir xildir. Masalan, 桌子里边 va 桌子. Bu ikki birikmaning ma‘nosi bir xil, ya‘ni “stolning ichida” demakdir.

Yo‘nalishni ifodalovchi lokativlar gapda o‘rin-joyini, yo‘nalishni, sharoitni, jarayonni va vaqtni ham ifodalashi mumkin. Bunda ko‘pincha “...上”, “...中”, “...下” qo‘llaniladi.

“...上”ning ma‘nosi “在...方向”, ya‘ni “...jigatidan”, “...tomonidan” ma‘noga ega. Masalan: 经济上的损失一定要补回来⁹。

“Iqtisodiyotda sodir bo‘lgan zararni, albatta, qoplash kerak”.

“...下”ning ma‘nosi “在...条件下”, ya‘ni qandaydir sharoitda sodir bo‘ladigan harakat, hodisani bildiradi.

这种金属高温下也不易熔化¹⁰。

“Bu xildagi tilla yuqori haroratda ham o‘zgarishi qiyin”.

“...中”ning ma‘nosi “...jarayonida, ...-da, ...paytda”, masalan:

假期中，他为大家做了不少好事¹¹。

“Ta‘tilda u barcha uchun ko‘p yaxshi ishlar qildi”.

O‘rin-joyini ifodalovchi lokativlar xitoy tilida 处所词 deb ataladi. Bular ham ot va o‘tli birikmadan hosil bo‘ladi. O‘rin-joyini ifodalovchi lokativlar gapda ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol vazifasini bajaradi.

⁶实话实说。商务印书馆，2009年。- 77页。

⁷故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 53页。

⁸实话实说。商务印书馆，2009年。- 85页。

⁹故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 58页。

¹⁰朱德藩。语法讲义。商务印书馆，1982年。- 85页。

¹¹故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 59页。

Ushbu guruhdagi soʻzlar ega vazifasida qoʻllanganda maʼlum bir joyni ifodalaydi, gapni boshida qoʻllanadi. Masalan:

市中心十分繁华¹²。(Ega vazifasida 市中心)

“Shahar markazi juda gavjum”.

会场上安静极了¹³。(Ega vazifasida 会场)

“Majlislar zalida sukunat”.

这里街道路面旷阔，房屋整齐¹⁴。(Ega vazifasida 这里)

“Bu yerdagi koʻcha va yoʻlaklar keng, uylar tartibona joylashgan”.

Shu bilan birga oʻrin-joyni ifodalovchi lokativlar 是 “bor, mavjud boʻlmoq”, 有 “bor”, “mavjud boʻlmoq” feʼlli gaplarda, qoʻllanadi. Masalan:

北京的北面是连绵不断的山，北京的南面是露色的太平原¹⁵。(Ega vazifasida 北京的北面)

“Pekinning shimoli bir-biri bilan tutashgan togʻlar bilan oʻralgan, janubi esa yashil tekislikdir”.

杭州是有名的花园城市。(Ega vazifasida 杭州)

“Hanzhou bu mashhur gullar shahridir”.

你身上，脸上都是泥。摔掉了吗？(Ega vazifasida 身上，脸)

“Sizning ustingizda ham, yuzingizda ham loy bor. Yiqilib tushdingizmi?”

我家的后面有一个大花园。(Ega vazifasida 我家的后面)

“Mening uyimning orqasida katta bogʻ bor”.

真遗憾，我这里没有这方面的资料。(Ega vazifasida 我这里)

“Afsus, menda bu toʻgʻrisida maʼlumot yoʻq”.

Bundan tashqari bu guruhdagi soʻzlar mavjudlikni ifodalovchi boshqa gaplarda ham qoʻllanadi. Masalan:

房子的两边摆着鲜花¹⁶。(Ega vazifasida 房子的两边)

“Xonaning ikki tomoniga ham tirik gullar terib qoʻyilgan”.

远处传来姑娘们的欢笑声。(Ega vazifasida 远处)

“Uzoqdan qizlarning kulgusi eshitildi”.

天上飞过去一群鸟¹⁷。(Ega vazifasida 天上)

“Osmonda bir gala qushlar uchib ketdi”.

Oʻrin-joyni ifodalovchi lokativlar gapda toʻldiruvchi vazifasini ham bajaradi. Bunda bu guruh soʻzlari asosan 在, 到, 朝, 向, 往, 从 kabi koʻmakchilar va feʼllar bilab birga qoʻllanadi. Masalan:

你要的那本书在这儿呢。(Toʻldiruvchi vazifasida 在这儿)

“Sizga kerak boʻlgan kitob shu yerda”.

刘先生和他的太太半年前去欧洲了。(Toʻldiruvchi vazifasida 欧洲)

“Janob Liu va uning rafiqasi yarim yil oldin Ovroʻpaga ketib boʻlishdi”.

夏天，人们常在这个古老的大树下成凉，休息。(Toʻldiruvchi vazifasida 这个古老的大树下)

¹²张伯江。汉语功能语法研究。商务印书馆，1982年。- 97页。

¹³故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 61页。

¹⁴实话实说。商务印书馆，2009年。- 251页。

¹⁵朱德藩。语法讲义。商务印书馆，1982年。- 91页。

¹⁶故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 61页。

¹⁷实话实说。商务印书馆，2009年。- 252页。

“Yozda odamlar ko‘pincha mana bu qadimgi daraxt tagida issiqdan qochib salqindan bahra va dam olardilar”.

O‘rin-joyini ifodalovchi lokativlar gapda aniqlovchi vazifasini bajarganda doimo “de” yordamchi so‘zi bilan birga qo‘llanadi. Masalan:

北京的春天很暖和。(Aniqlovchi vazifasida 北京)

“Pekinning ob-havosi iliq”.

这里的一切似乎都变了样子。(Aniqlovchi vazifasida 这里)

“Bu yerda barcha narsa o‘zgarganidek tuyuladi”.

户外活动对他成了巨大的经验。(Aniqlovchi vazifasida 户外)

“Uydan olisda yashash u uchun katta tajribaga aylandi”.

O‘rin-joyini ifodalovchi lokativlar gapda hol vazifasini ham bajaradi, masalan:

你坐飞机去，我坐火车去，咱们后天上海见¹⁸。(Aniqlovchi vazifasida 上海)

“Siz samolyotda boring, men esa poyezdda boraman, biz Shanhayda ushrashamiz”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. С.А. Хашимова . ХОЗИРГИ ХИТОЙ ТИЛИ СИФАТЛАРДА КОНВЕРСИЯ ХОДИСАСИ - МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 2020
2. С Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
3. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
4. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ*. 391 с (р. 361).
5. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
6. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opcción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
7. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
8. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
9. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
10. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
11. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).
12. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.

¹⁸故播刘。实用现代汉语语法。- 北京，2012年。- 63页。

-
13. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
14. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
15. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化, 87, 0
16. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). *Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации*. С. 187-188.
17. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In *КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ* 3,384,2019